

**KICHIK BIZNESDA XO'JALIK FAOLIYATI XARAJATLARNI  
HISOBGA OLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**A.Isomuxamedov (Namangan muhandislik-qurilish instituti  
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi)**  
**akbarjon@gmail.com ORCID: 0009-0004-2630-3840**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida xarajatlarni hisobga olish masalalari ko'rib chiqilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy hisob, boshqaruvi hisobi, moddiy resurslar, moliyaviy dastaklar, hisob siyosati, boshlang'ich hujjatlar, hisob siyosati.

Hozirda kichik biznes sub'yeqtalarining ko'pchiligidagi hisob siyosati ishlab chiqilmagan. Buning sabablaridan biri hisob yuritish xodimlarining bilimlari va malakaviy darajasi barcha hollarda ham zamonaviy talablarga javob bera olmasligidir. Shuning uchun kichik biznes sub'yeqtleri uchun korxona hisob siyosatining namunaviy ko'rinishlarini ishlab chiqilishi va tavsiya etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilmiy nashrlarda kichik biznes sub'yeqtalarida buxgalteriya hisobini yuritishni takomillashtirish va uni zamon talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha takliflar muntazam ravishda olg'a surilmoqda. Hozirgi paytda Moliya vazirligi tomonidan bu takliflarning umumlashtirilishi, kichik biznes korxonalari uchun soddallashtirilgan hisoblar rejasini, boshlang'ich hujjatlarning eng muhim turlarining tavsiya etiladigan namunalarini, kichik korxonada buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilmasi va vazifalar taqsimotini, hujjatlar aylanishini namunaviy sxemasini o'z ichiga olgan kichik korxona namunaviy hisob siyosati ishlab chiqilishi zarur. Fikrimizcha, mazkur hujjatni 20-sonli BHMS ning tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki yuqoridagilar tadbirkorlik erkinligi cheklanishini bildirmaydi, balki kichik korxonada moliyaviy intizom va moliyaviy nazoratni mustahkamlashga xizmat qiladi, kichik tadbirkorlik sub'yektiga nisbatan kreditorlar va potensial investorlarning ishonchlarini oshiradi, korxona faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotning zarur darajada oshkoraliyi va shaffofligini ta'minlaydi.

Kichik biznesda buxgalteriya hisobini tashkil etishni xo'jalikning hisob siyosatini ishlab chiqish va rasmiylashtirilishidan boshlash lozim. O'zbekiston Respublikasining 1-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti – «Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar»ning 55-bandiga binoan yangi tuzilgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'z moliyaviy hisobotlari dastlabki e'lon qilinishiga qadar, lekin yuridik shaxs huquqlarini qo'lga kiritilgandan so'ng 90 kundan kechiktirmasdan hisob siyosatini rasmiylashtirishi lozim. Bu talab mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarga taalluqlidir. Xo'jalikning hisob siyosati 1-sonli

standartning shu bandi talabi bo'yicha xo'jalik rahbarining tashkiliy-farmoyish hujjati (buyruq, farmoyish va shu kabilar) ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Ishlab chiqilgan va qabul qilingan hisob siyosati xo'jalikda yil davomida o'zgartirilmaydi. Hisob siyosati xo'jalik yurituvchi sub'yeqt tomonidan moliyaviy hisobotlar tayyorlash va tuzish uchun qo'llaniladigan o'ziga xos qoidalari qonunchilikka zid bo'lishi mumkin emas. Ayni paytda, hisob siyosati doirasida xo'jalik buxgalteriya hisobini yuritishning muhim masalalarini o'z ehtiyojlari va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda mustaqil hal eta oladi.

Kichik biznesda hisob siyosatini ishlab chiqishda ikki muhim masala muhim ahamiyat kasb etadi: birinchisi, boshlang'ich hujjatlarning rasman belgilab berilgan shakllaridan boshqa shakllarini ham qo'llash yoki rasman belgilab qo'yilgan shakllarga qo'shimcha kiritish, korxona buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi tartibini belgilab olish, ikkinchisi esa, korxonada buxgalteriya hisobining ishchi hisoblar rejasini ishlab chiqish.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini qo'llashda xo'jalik buxgalteriya hisobining qo'llanilayotgan registrlarini o'z faoliyati xususiyatlariغا muvofiqlashtirib olishiga ruxsat beriladi. Lekin bunda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- buxgalteriya hisobining yagona metodologiyasiga, ikki yoqlama yozuv tamoyiliga;

- analitik hisob sintetik hisob ma'lumotlarining o'zaro bog'langanligiga;

- barcha xo'jalik operatsiyalarini hisob registrlarida yoppasiga aks ettirilishiga;

- hisobning boshlang'ich hujjatlariga asoslanib yuritilishiga;

- boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ko'rsatkichlar bo'yicha yig'ib borilishiga va tartiblashtirilishiga.

Buxgalteriya hisobining yuritilishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- barcha xo'jalik operatsiyalarini tegishli boshlang'ich hujjatlar tuzish orqali yoppasiga hujjatlashtirish;

- boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlarni hisob registrlariga kiritish;

- moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Korxonaning hisob siyosatida yuqoridagi qayd etilgan jihatlar e'tiborga olingan bo'lishi lozim. Chunonchi, hisob siyosati korxonada boshlang'ich hujjatlarni tuzish va ulardan foydalanishdagi o'ziga xos tomonlarni yoritib beradi: xo'jalik jarayonida qanday boshlang'ich hujjatlar tuziladi, kimlar tuzadi va imzolaydi, kimlar tomonidan hujjatlar qayta ishlanadi, hujjatlarning rekvizitlari va hokazolar.

Korxonada buxgalteriya hisobining yuqoridagi tamoyillariga qat'iy amal qilinishi, hisob ma'lumotlarining aniqligi va xolisligini oshiradi. Buning natijasida

boshqaruv qarorlari uchun zarur axborotning sifat darajasi yaxshilanadi hamda qabul qilinadigan qarorlar samaradorligi ortadi.

Ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tizimi tartib-qoidalari O'zbekiston Respublikasining 20-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartida belgilab berilgan bo'lib, u «Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan hisobni soddalashtirilgan holda yuritilishi va hisobotlar tuzilishi tartibi to'g'risida» deb ataladi. Mazkur standart Adliya vazirligida 2004 yil 24 yanvarda 879-son bilan ro'yxatga olingan. Standartning 1.2-bandida u «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun talablari bilan belgilangan umumiy qoidalar bilan bir qatorda amal qilishi qayd etilgan, lekin standart buxgalteriya hisobining qonunda belgilangan talablaridan chekinishni bildirmaydi. Standartning 22-bandida qayd etilganidek, alohida operatsiyalar va hodisalarni batafsil aks ettirish, o'lchash va ochib berish maqsadlarida u buxgalteriya hisobining boshqa milliy standartlari bilan birgalikda qo'llanadi.

Korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqishda ikki masala muhim axamiyat kasb etadi: birinchisi, boshlang'ich hujjatlarning rasman belgilab berilgan shakllaridan boshqa shakllarini ham qo'llash yoki rasman belgilab berilgan shakllarga qo'shimchalar kiritish, korxona buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi tartibini belgilab olish, ikkinchisi esa, korxonadagi buxgalteriya hisobining ishchi hisoblar rejasini ishlab chiqish.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini qo'llashda xo'jalik buxgalteriya hisobining qo'llanayotgan registrlarini o'z faoliyati xususiyatlariga muvofiqlashtirib olishga ruxsat beriladi. Lekin bunda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- buxgalteriya hisobining yagona metodologiyasiga;
- ikki yoqlama yozuv tamoyiliga;
- analistik hisob bilan sintetik hisob ma'lumotlarining o'zaro bog'langanligiga;
- barcha xo'jalik operatsiyalarini hisob registrlarida yoppasiga aks ettirilishiga;
- hisobning boshlang'ich hujjatlarga asoslanib yuritilishiga;
- boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ko'rsatkichlar bo'yicha yig'ib borilishiga va tartiblashtirilishiga.

Buxgalteriya hisobining yuritilishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: barcha xo'jalik operatsiyalarini tegishli boshlang'ich hujjatlar tuzish orqali yoppasiga hujjatlashtirish; boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlarni hisob registrlariga kiritish; moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Korxonaning hisob siyosatida yuqorida qayd etilgan jihatlar e'tiborga olingan bo'lishi lozim. Chunonchi, hisob siyosati xo'jaligida boshlang'ich

hujjatlarni tuzish va ulardan foydalanishdagi o'ziga xos tomonlarni yoritib beradi: xo'jalik jarayonida qanday boshlang'ich hujjatlar tuziladi, kimlar tuzadi va imzolaydi, kimlar tomonidan hujjatlar qayta ishlanadi, hujjatlarning revizitlari va hokazolar. Shuningdek, hisob registrlarini qo'llashga alohida ahamiyat beriladi.

Kichik biznesda hisob siyosatini ishlab chiqishda boshqaruv hisobi doirasidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki busiz korxona menejmentini erkin iqtisodiyot muhiti talab etayotgan darajaga ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy korxona faoliyati puxta va uzlucksiz olib boriladigan byudjetlashtirishga asoslanadi. Tannarx hisobini yuritishda standart-kostingga tayanish zarur bo'lib bormoqda. Korxona menejmentida mahsulotlar turlari yoki mas'uliyat markazlari bo'yicha xarajatlar me'yorlarini oqilona belgilash hamda me'yorlarga rioya etilishi ustidan muntazam nazorat olib borilishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmi-xarajatlar-foyda tahlilini olib borish o'ta muhim o'rin egallamoqda. Mazkur vazifalar ijro etilishining axborot bazasini boshqaruv hisobini yuritish orqali ta'min etiladi. Shuningdek, kichik biznes korxonasining buxgalteriya hisobi tuzilmasi mazkur vazifalarni to'g'ridan-to'g'ri bajarib borishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiyot fanidagi qiymat nazariyasiga binoan xarajat bir iqtisodiy resurs qiymatining boshqa turdag'i boylik qiymatida mujassamlashuvi jarayonini anglatadi. Shu nuqtai nazaridan tadbirkorlik kapitali doiraviy aylanishining uchta bosqichida sodir bo'ladigan xarajatlarni farqlash o'rinni bo'ladi: 1) korxonaga tashqaridan resurslar kirib kelishi uchun xarajatlar (ta'minot jarayonlarining xarajatlari) mazkur resurslarning korxona uchun haqiqiy tannarxini shakllantiradi (10-schet); 2) resurslarning korxona doirasida harakatlanishini ifodalovchi harajatlar (resurslarni ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanishga qo'shimcha ravishda tayyorlash (16-schet), ishlab chiqarish jarayonida foydalanish (20-schet), asosiy kapitalni shakllantirish uchun foydalanish(08 -schet) va boshqalar); 3) resurslarning ular evaziga korxona tomonidan muayyan daromad olinishi maqsadlarida korxonadan tashqariga chiqib ketishida ular qiymatini xarajat sifatida ifodalash (91-schet) . Bularidan tashqari moliyaviy dastaklar qo'lga kiritilishida sodir bo'ladigan xarajatlar ham mavjud. Resurslar korxonadan daromad keltirmasdan chiqib ketishida esa moliyaviy hisobda zarar atamasi qo'llanadi.

Moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari haqqoniyligi ta'minlanishi nuqtai nazaridan resurslar qo'lga kiritilishi jarayonidagi amalga oshirilgan xarajatlar hisobi va ularning resurslar qiymati shakllanishida oqilona aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar", 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zahiralar" va 12-sonli BHMS "Moliyaviy investisiyalarni hisobga olish"da shu yo'nalishlarda xarajatlar hisobi yuritilishi tartiblari belgilab

qo'yilgan.

Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan xarajatlarning mazmuni bir-biridan muhim ravishda farq qiladi. Asosiy vositalar shakllanishidagi xarajatlar korxonaning asosiy kapitaliga aylanadi va undan ko'p yillar mobaynida moliyaviy samara olinadi. Ular tufayli korxona erishyotgan tejam qiymati amortizatsiya hisoblanishida aks etadi[1]. Tovar-moddiy boyliklar olinishidagi xarajatlar bo'yicha iqtisodiy naf tayyor mahsulot yoki tovar sotilishi orqali korxonaga kelib tushadi. Bu xarajatlar moddiy boyliklar qiymatida mujassamlashadi[2]. Moliyaviy dastaklar bilan bog'liq xarajatlar asosan moliyaviy xarajatlar tarzida bo'lib, moddiy resurslarda mujassamlashmaydi. Moddiy resurslar olinishi bilan bog'liq xarajatlardan farqli ravishda moliyaviy dastaklar olinishi bilan bog'liq xarajatlar ular amalga oshirilgan davrdan keyingi davrlarda o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Uzoq muddatli moliyaviy aktivning qadr-qiyamatini keyingi davrlarda undan kelishi mumkin bo'lган moliyaviy daromad belgilab beradi. Shuning ularning muntazam ravishda qayta baholab borilishi nazarda tutiladi[3].

Buxgalteriya hisobida moliyaviy ma'lumotlarning yakuniy qismi hisobot davri tamom bo'lgandan keyin tugal ravishda shakllanadi. Bu esa joriy qarorlar qabul qilinishida ularga asoslanishda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Moliyaviy hisobni boshqaruv hisobi bilan hisob siyosatida uyg'unlashtirish, hisob siyosati tarkibidagi boshqaruv hisob elementlari mazkur ziddiyatni yumshatib turadi. Chunonchi, xarajatlarni normativ usulda hisobga olish (boshqaruv hisobi) va chetlanishlarning operativ hisobi (mazmunan moliyaviy hisob elementi) ishlab chiqarish xarajatlari samarali boshqarilishi uchun xizmat qiladi.

Korxonada hisob siyosati ishlab chiqishda qo'llashda moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish hisobi yuritilishini uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'ladi. Korxonada hisob yuritilishi yaxlit buxgalteriya hisobi tizimi doirasida amalga oshiriladi. Mazkur tizimning har bir elementi mazkur uch yo'nalishda xizmat qilishi bilan birga mazmunan biror yo'nalish uchun ustun darajada xizmat qiladi. Hisob yuritishdagi moliyaviy, boshqaruv va ishlab chiqarish yo'nalishlari o'zaro muvofiqlashtirilishi korxonalar iqtisodiy erkinliklari sharoitlarida har bir sub'yekt tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisob va ishlab chiqarish hisobi bilan uzviy ravishda bog'lab qo'yilgan boshqaruv hisobi tashkil etilishining yetarli darajada aniqlashtirilgan tizimlari tarmoqlar va sohalar uchun ishlab chiqilishi va tavsiya etilishi ayniqsa kichik biznes uchun ahamiyatli bo'lar edi. Bu tizimlar esa, tarmoq xususiyatlariga bog'liq holda moliyaviy hisobga xos ichki nazorat tizimini, ishlab chiqarish hisobini boshqaruv qarorlari qabul qilishga va byudjetlashtirishga qaratilgan boshqaruv hisobi bilan yagona mezon (pirovard moliyaviy natijaga ta'siri) asosida birlashtirishi mumkin bo'ladi.

Korxonada moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish hisobi uzviy birlashtirilgan holda tashkil etiladi. Ularning aniq o'zaro chegaralarini belgilash zaruriyati ham ko'zga tashlanmaydi: ularning har biri korxona faoliyati uchun ob'yektiv zarur. Ishlab chiqarish hisobidagi nuqsonlar boshqaruv qarorlariga, ular esa moliyaviy ahvolga salbiy ta'sir etadi.

Hisob yuritishni tashkil etishda har uchchala tomonlarni oqilona va zarur darajada birlashtirishga hisob siyosatining ishlab chiqilishi va qo'llanishi orqali erishiladi. Buning uchun yuqori malakali buxgalter kadrlar kerak. Buxgalteriya hisobi tizimida hisob yuritish tizimida xo'jalik faoliyati natijalari va boshqaruvchilar motivatsiyasi o'rtasida aloqadorlik o'rnatilgan bo'lishi, ichki moliyaviy nazorat tizimi esa boshqaruvchilarning qarorlari boshqaruv hisobi natijalari bilan asoslanishini rag'batlantirishi lozim.

Hisob siyosatida buxgalteriya hisobi masalalarini alohida modullarga ajratgan holda belgilab olish zarur. Bunday yondoshish buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va har bir modulda unga mos keluvchi mavjud dasturiy mahsulotni ko'llash imkoniyatini yaratadi. Buxgalteriya hisobida kompyuter dasturlari va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, shuningdek, boshqaruv hisobini avtomatlashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Korxonada bunday tizim ishlab chiqilishida hisob siyosatida barcha boshqaruv ob'yektlari uchun "xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi" tamoyili bo'yicha aniq ko'rsatkichlarni shakllantirish algoritmlari nazarda tutilishi lozim.

Tannarxning hisoblab chiqilishida va ma'lumotlardan boshqaruv qarorlarini asoslash uchun foydalanishda xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi keng qo'llanadi. Bu orqali korxonalarda ishlab chiqarish kuvvatlaridan to'liq foydalanish, xarajatlarni samarali taqsimlash maqsadida tannarxni kalkulyasiya qilishning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuzaga keladi[4].

Hisob siyosatida korxonalar amaliyotida «zararsizlik nuqtasi», «marjinal daromad», «ishlab chiqarish dastagi» va boshqa yangi iqtisodiy ko'rsatkichlarining joriy etilishi hamda ularni xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlik tahlili asosida qarorlar ishlab chiqilishi lozim[5].

Boshqaruv hisobini olib borishda korxona ichki ishlab chiqarish hisobi vositasida xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniq ifodalashga erishish zarur. Buxgalteriya hisobining bunday tizimida har bir boshqaruv ob'yektining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha ichki hisobotlari shakllantiriladi. Ularning ma'lumotlariga tayangan holda korxonada va uning turli bo'linmalarida marjinal daromad shakllanishi va rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Korxonaning umumiylarida daromadiga hissa qo'shishiga monand ravishda

bo'linmalar, xodimlar va funksional boshqaruvchilar rag'batlantiriladi[6].

Demak, korxonaning hisob siyosatida xarajatlar bo'yicha ajratilgan schyotlardagi ma'lumotlar boshqaruv hisobini yuritish va boshqaruv hisobi uchun kerakli axborotlarni tizimli ravishda joylashtirishga qaratilishi lozim. Albatta, boshqaruv qarorlari ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlar statistik va soliq hisobotlaridan ham olinadi. Lekin mazkur hisobotlarning ma'lumotlari manbai bo'lib buxgalteriya hisobi xizmat qiladi. Shuning mazkur hisobotlar uchun zarur ma'lumotlar shakllanishi hisob siyosatida belgilab olinishi ularning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar"- [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zahiralar"- [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. 12-sonli BHMS "Moliyaviy investisiyalarni hisobga olish" - [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Sirojiddinov I. Q. Moliyaviy menejment. Darslik. – Namangan, 2023, -bet.
5. Xolmirzaev U. A. et al. APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS //Internauka. – 2021. – №. 21-5. – S. 17-19.
6. Ergashxujayeva Sh.T. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti. Uchebnik. –Tashkent, TGEU, 2021, str...
7. Akbarjon, I. (2024). XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 22-28.
8. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(04), 9-12.*
9. ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Кутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 406-412.
10. Boxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 64-70.
11. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
12. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
13. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT,* [www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(12), 27-32.

14. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).
15. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
16. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
17. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.
18. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
19. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
20. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
21. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
22. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.
23. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
24. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.

25. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.*
26. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
27. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
28. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
29. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
30. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
31. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
32. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
33. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
34. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
35. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
36. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.

37. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting, 100.*
38. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука, (1 (34)), 100-105.*
39. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука, (21-5), 14-16.*
40. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления, (5), 182-184.*
41. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management, 4(3), 1-8.*
42. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
43. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 34-39.*
44. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум, (2 (45)), 34-36.*
45. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 2107-2114.*
46. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3695-3702.*
47. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.*
48. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches, 1(3), 42-50.*

49. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
50. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
51. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
52. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
53. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
54. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Информатика*, (21-5), 20-22.
55. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Информатика*, (21-5), 9-11.
56. Abdulazizovich, X. U. B., & Djabirxanovna, N. M. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(3), 288-297.
57. Abdulazizovich, X. U. B., & Raxmjonovna, M. N. (2024). QIMMATLI QOG'ÖZLARNI ANALITIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(4), 18-28.